

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:31 (67196)
2018-yil 30-iyul

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

KICHKINTOYLAR DAVRASI

4-bet



O'Z HOSILIN KIM QILSA ISROF, UNGA KERAK UQUV VA INSOF!

– Vodiya kelsangiz,
Rahima buvijonim
o'rgatganday bog'imizda
yetishtirilgan
o'riklardan tayyorlangan
bargak va turshaklar
bilan mehmon qilamiz, –
deydi opa-singil Madina
va Nargiza.


2-bet



KITOB O'QIYOTGAN BOLA

Jonajon Vatanimiz dunyo tamadduniga hissa qo'shgan ne-ne buyuk zotlarning aziz diyori ekanligi hammamizga ma'lum. Bugungi davr o'quvchilari zamon bilan hamnafas bo'lishga intiladi, izlanadi, o'rganadi va albatta, nimagadir erishadi. Inson ongli mavjudot, o'z navbatida, o'zining ong va tafakkuri bilan fikrlaydi. Matriarxat davridayoq odamlar o'zi guvohi bo'lgan ov jarayonlarini g'or devorlariga chizib, tasviriy san'atning paydo bo'lishiga ongli ravishda hissa qo'shgan. Xitoyda milodiy I asrda qog'oz paydo bo'lgunga qadar ham odamlar turli buyum (sopol, bambuk, shoyi mato)larga yozishi bilan ham ongli ravishda bugungi axborot-texnologiyalari zamoniga yetib kelishimizga dasturulamal bo'lgan, desak, xato bo'lmaydi.

Bizning davrimizda farzandlarimiz baxtli hayot kechirishlari uchun barcha shart-sharoitlar muhayyo. Ularning jismonan sog'lom, ma'nan yetuk bo'lib ulg'ayishlari uchun ko'rsatilayotgan e'tiborning chek-chegarasi yo'q. Yoshla-



rimizning kitobxonlik madaniyati yuqori, ular o'rtasida ommaviy kitobxonlikni targ'ib qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyevning «Bugun kitob o'qiyotgan bir nafar bola ertaga televizor ko'rayotgan o'n nafar bolani boshqaradi», degan so'zlari o'z isbotini topayotir.

Farg'ona viloyatining Furqat tumanida ham kitobxonlikni targ'ib qilish, yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatini oshirish maqsadida bir talay ishlar amalga oshirilmoqda. Tuman Yoshlar

ittifoqi va tuman xalq ta'limi bo'limi hamkorligida joriy yilning 12–14-iyul kunlari «Eng yaxshi kitobxon o'quvchi» tanlovining tuman bosqichiga saralash testlari o'tkazildi. Ushbu tanlov testlarida 457 nafar 20–30 yoshli kitobxon, 892 nafar 15–19 yoshli kitobxon, 820 nafar 10–14 yoshli kitobxonlar faol ishtirok etdilar. Ushbu qatnashchilardan yetarli ball jamlagan kitobxonlar g'olib sifatida saralab olindi. Tadbirida o'quvchilar 4 shart bo'yicha bellashdilar.

34-IDUM o'quvchisi Ruxshonaxon Rustamova tanlovning muvaffaq g'olibi bo'ldi. 16-umumta'lim maktabi o'quvchisi Muhayyoxon Valiyeva hamda 33-umumta'lim maktabi o'quvchisi Dilruxsoraxon G'afforovalar qolgan o'rinlarni egallashdi.

– Sinov shartlaridan birida menga mashhur yozuvchimiz Turob To'la haqida so'zlab berishim kerak edi. Sevimli adibimizning hayoti va ijodi bilan yaxshi tanish bo'lganligim uchun ushbu shartda yuqori ball oldim. «Asardan parcha» shartida qayta-qayta mutolaa qilib zerikmagan asarim – «Mehrobdan chayon»dagi Anvar va Ra'noning g'azal aytishuvi tushdi, – to'liqlanib so'zlaydi Ruxshona. – Kitobga bo'lgan yuksak mehrim ustozlarim maktabimiz rahbari Farog'atxon Ergasheva hamda sinf rahbarim, til va adabiyot muallimam Aziza Haydaraliyeva sababdir.

Nurbek QIDIRALIYEV

SEN BORSANKI, BAXT BOR, IQBOL BOR!

Men tumanimizdagi «Barkamol avlod» bolalar ijodiyoti markazidagi «Yosh qalamkashlar» to'garagi a'zosi. Qishlog'im tabiati-yu xushbo'y rayhonidan tortib, istarasi issiq hamqishloqlarim menga ilhom bag'ishlaydi. Shunday go'zal yurtida yashash baxti nasib etganidan xursandman.

Ko'zlarimning nurisan, Vatan,
Hayotimning go'zal parchasi.
Kelajakka boshlaysan meni,
Ortda qolar barcha-barchasi.

Yuragimning qonisan, Vatan,
Sen borsanki, baxt bor, iqbol bor.
Qalbim bilan sevaman seni,
Chunki endi menga tole yor.

Sevinchxon SAHOBIDDINOVA,
Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi
14-umumta'lim maktabi o'quvchisi

Yaqinda poytaxtimiz Toshkentga Farg'onadan mehmonlar kelishdi. Ular tashrifidan xursand bo'lib, go'zal kentimizning diqqatga sazovor joylariga olib bordim. Shahrimizda olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari haqida to'liqlanib so'zlab berdim. Davlatimiz rahbarining umumiy o'rta ta'lim tizimini isloh qilish va rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratayotganliklari haqida so'z ochganimda esa, «Endi maktablarda o'quvchilarimiz yaxshi bilim olishar ekan-da», deb quvonib ketishdi.

O'Z HOSILIN KIM QILSA ISROF, UNGA KERAK UQUV VA INSOFI!

Sayohatimizning ikkinchi kuni menga hamroh bo'lgan jiyanim Beshariq tumanidagi 43-umumta'lim maktabining 1-sinf o'quvchisi Madina Anvarova ishxonamga boradigan yo'lakda yer bilan bitta bo'lib to'kilib yotgan o'rik hosilini ko'rib,

«Voy, xola, o'riklar uvol bo'libdi-ku», dedi. Men bu holatga shoshib turganim uchun yelka qisib qo'ya qoldim. Jiyanim yerga tushgan bir dona o'rikni qo'lga olib pufladi-da, yeb ko'rib, juda shirin ekan, essiz, dedi. Kechqurun ishdan qaytgach, mehmonning qizimga gapirayotgan so'zlari qulog'imga chalindi:

– Bilasizmi, biz o'riklarni vaqtda terib quritamiz. Qo'shnilarimizga ham o'rikni terishga yordamlashamiz. Daraxtni tagiga to'rt-besh kishi choyshabni tortib ushlab turadi, bir kishi daraxtga chiqib qoqadi. Matoni asta yerga qo'yib, mevalarni terib olamiz, ezilmagan bo'lgani uchun ular chiroyli quriydi. Mabodo, shamol bo'lib to'kilgan bo'lsa, darrov terib

mumkinligini ham bilarkan. Yoshgina qizaloqning maktabda a'lo baholarga o'qib, oilada tejamkorlikka, mehnatsevarlikka o'rgatilayotganidan, isrof degan tushunchalarni erta anglaganidan xursand bo'ldim, fikrlari dalilli va dadil ekanligidan



quvondim. Ko'z oldimda shig'il-shig'il mevasini ko'tarib turgan mevali daraxt-u mevasini terib olishga e'tibor qaratmagan o'sha hudud egalari e'tiborsizligi va mas'uliyatsizligidan ranjdim.

Mehmonimning har kuni chiqindixonamizga butun-butun buxonka-yu tandirda yopilgan nonlarni mog'orlatib tashlab ketayotganliklariga guvoh bo'lganligidan xursand bo'ldim. To'qlikka sho'xlik qilayotgan, isrofga yo'l qo'yayotgan insonlarga har bir kishi, shu jumladan, bolalar yoshlikdan tejamkorlikka, mahsulotlarni isrof qilmaslikka o'rgatilishi

oftobga yoyamiz. Ba'zan yomg'ir yog'ib, mevalar loyga to'kiladi. Bu mevalarni ham terib, yuvib, danagini chiqarib, quritamiz. Danagini chaqib, mag'izini issiq non bilan yeymiz. Chaqilgan danak po'choqlarini bir joyga to'plab yig'amiz, ulardan o'choqqami, tandirgami, olov yoqishda foydalanamiz.

Men mehmonimning yosh bo'lishiga qaramay, tejamkor, saranjomligiga qoyil qoldim. U tomorqaga qanday mahsulot ekilsa, daromad yaxshi bo'lishi haqida ham o'z fikrlarini aytib o'tdi. Bozordagi ba'zi mevalar-u poliz-ekinlari narxi ham shunga qarab qimmat yoki arzon bo'lishi

nihoyatda zarurligiga yana bir bor ishonch hosil qildim. Axir buvi-bobolarimiz tejamkorlik, saranjom-sarishtalik bor joyda baraka bo'ladi, deb o'rgatishgan-ku.

Aziz o'quvchilar! Siz tejamkorlik, isrofgarchilik deganda nimani tushunasiz, shaxsiy tomorqangizdan aniq va maqsadli foydalanyapsizmi? Shu haqda maktublaringizni kutamiz.

Nodira NAZAROVA

«OROMGOH CHEMPIONATI» ZO'R LOYIHA SANALDI

Ayni kunlarda O'zbekiston yoshlar ittifoqi va «Kamalak» bolalar tashkiloti Qashqadaryo viloyat Kengashining sardorlari «Yozni «Kamalak» bilan!» loyihasini vohamiz bo'yab keng miqyosda o'tkazmoqda.



– Oromgohda qiziqishlari sust, tarbiyasi biroz og'ir bo'lgan o'g'il bolalarni loyihalarimizga jalb etishda qiyinchilikka duch keldik. Sardorlar birgalashib bu muammoga ham yechim topdik. Ya'ni, bu yoshlarning futbol sport turiga qiziqishi yuqori ekanligini inobatga olib, «Oromgoh chempionati» futbol musobaqasini tashkillashtirdik va bu musobaqa tufayli kutgan natijaga erishdik. Aynan «Oromgoh chempionati» futbol musobaqasi reytingi yuqori loyihalardan biriga aylandi, – deya fikrlarini bayon etdi viloyat Yoshlar ittifoqi sardori Zarina To'xtayeva.

Navbatdagi safar viloyatimizning eng so'lim yozgi sog'lomlashtirish oromgohlaridan biri «Yosh alangachi»-da tashkil etildi. Tog'oldi hududida joylashgan mazkur maskan dam oluvchilar bilan birgalikda sardorlarda ham olam-olam taassurot qoldirdi.

– Biz, avvalo, oromgohda qanday loyihalarni tashkillashtirishimiz haqida tengdoshlarimiz o'rtasida so'rovnomani o'tkazdik. So'ng, ularning istak-xohishlariga ko'ra yangi loyihalarni amalga oshirdik, – deydi viloyat «Kamalak» sardori Marjona Jo'raqulova.

Bir-biridan ajoyib bo'lgan sport musobaqalari, davra suhbatlari, madaniy kechalar, mahorat darslarida deyarli barcha bolalar bir vaqtning o'zida guruhlariga ajralgan holda to'liq qamrab olindi. Har bir guruhga esa sardorlar mas'ul etib belgilandi va ular o'z vazifalarini a'lo darajada bajarishdi. Oromgohda «Loyihalar kun tartibi»ning joriy etilishi orqali har bir dam oluvchi o'z qiziqishiga ko'ra kun tartibida keltirilgan tadbirlardan biriga vaqtida qatnashish imkoniyatiga ega bo'ldi. Qolaversa, sardorlar taklifiga binoan o'tkazilgan «I love «Kamalak», «I love «Ittifoq» singari loyihalar dam oluvchilarda katta qiziqish uyg'otdi.

Kun yakunida «Yozni «Kamalak» bilan!» loyihasi doirasidagi tadbirlar kesimida faol ishtirok etgan «Yosh alangachi» oromgohi dam oluvchilari tashkilotning viloyat Kengashi tomonidan «Yoshlar kutubxonasi» rukni ostidagi kitoblar, loyiha logotipi tushirilgan futbolka va kepka, sertifikat, faxriy yorliq hamda qimmatbaho sovg'alar bilan rag'batlantirildi.

Aziza AXTAMOVA,
Qashqadaryo viloyati,
Qarshi shahridagi 1-DIUM o'quvchisi

Aql, odob, fan yo'li,
Yo'llarning eng ma'quli.

«BOYLIKNI BOLALIKDAN ASRANG» TANLOVIGA



Suv mo'l-ko'l hududda yashab turib, bitta ham ko'chat ekmaydiganlarni ko'rsam, dadam bilan chelakda suv tashib ko'chatlarni sug'organimiz ko'z oldimga keladi.

man. Yoki suv mo'l-ko'l hududda yashab turib, bitta ham ko'chat ekmaydiganlarni ko'rsam, dadam bilan chelakda suv tashib ko'chatlarni sug'organimiz ko'z oldimga keladi. Hovlimizga suv keltirish qiyin bo'lsa-da, dadam bilan ajoyib bog' yaratib, barchaga namuna bo'lmoqchimiz.

Ta'til tugab, yangi o'quv yili boshlangach, men maktabdagi faol do'stlarim bilan birga «Tabiat boyliklarini asraylik»

mavzusida seminar tashkillashtirishni rejalashtirmoqdaman. Seminarda gaz, elektr-energiya va suvdan oqilona foydalanishga bag'ishlangan

slaydlar va viktorina tayyorlaymiz.

Menga bunday g'oyalarni bergan sevimli gazetamga minnatdorchilik bildirib, tengdoshlarimni hamisha tabiiy boyliklarimizni qadrlashga undab yashashga va'da beraman.

Sarvar XOLDOROV,
Sirdaryo viloyati, Xovos tumanidagi
10-umumta'lim maktabi o'quvchisi

MENDA YANGI G'OYA BOR

TAMAKINI KIM CHEKADI?

Bir kuni do'stlarim bilan futbol o'ynagani stadionga bordik. Barchamiz o'yinga berilib ketdig-u, lekin ikki-uchta bola bir chekkaga to'planib olishdi. Ularning yoniga borib qarasam, allaqachon tamaki tutatishayotgan ekan. Hayratlangancha endi gap boshlasam, «Tag'in chaqimchilik qilib yurmagin», deya og'zimga urishdi. Men nima qilishimni bilmay, ularning yosh umrlarini xazon qilayotganlariga achindim. Axir ularning ota-onasini yaqindan taniyman, juda mehribon, yaxshi insonlar. Farzandlari shunday ish qilib yurishganini bilishsa, qay ahvolga tushishar ekan?! Nega ular ota-onalarini o'ylashmaydi? Aziz tengdoshlar, sizning do'stlaringiz orasida ham tamaki chekadiganlari bormi? Ularga qanday yo'l-yo'riq ko'rsatgan bo'lardingiz?

Poytaxtimizdagi 4-ixtisoslashtirilgan maktab-internatining 7-sinf o'quvchisi Shamshodbek Zulxunov quyidagicha fikr bildirdi:

– Tamakini kim chekadi? Albatta, o'zini,

ota-onasini hurmat qilmaydigan yoshlar-da. Bizning maktabimizda ham shunday o'quvchilar topilganida, ular tartibbuzarlar ro'yxatiga kiritildi. O'shanda ustozimiz bizga bu zararli odat haqida tushuntirish

ishlarini olib borganida, bir dalilni aytib bergandi. Bilasizmi, o'smirlar kattalardan berkitib, tez-tez chekkani-da, tamakidagi zaharli moddalar o'pkaga ikki barobar ko'proq o'tar ekan?! Va organizm o'sishdan orqada qolar ekan.

Yurtimizda biz yoshlarni turli ilatlardan asrashga doir festivallar, tanlov va marafonlar o'tkaziladi.

Tushuntirish ishlari olib boriladi. Shunday ekan, bu zararli odat va noto'g'ri yo'ldan voz kechib, sog'lom holda kelajakka qadam qo'yaylik.

Azizbek ABDUMALIKOV,
Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi
202-umumta'lim maktabi o'quvchisi

KICKINTOYLAR DAVRASI

«Bolajonlar, bugun hammangiz tushdan keyin yana cho'milishga chiqasizlar!»



«Ur-ra! Yana cho'milamiz!»
Kickintoylarning shodon qiy-qirig'i butun bog'chani tutib ketdi. Tarbiyachi opa ularni tinchlantirish uchun qo'lini baland ko'tardi. Bolajonlar tezda jim bo'lishib, navbatdagi mashg'ulotga tayyorlanishdi.

Poytaxtimizdagi 284-MTMDa har kuni shunday kechadi. Bog'cha mudirasi Ra'no opa Gaffarova boshchiligidagi kichkintoylarning saboq olishlari-yu ko'ngildagidek dam olishlari uchun barcha qulayliklar yaratilgan. Sport hamda musiqa zallarida o'tkazilayotgan mashg'ulotlarda bolajonlar juda faol. Sportning badiiy gimnastika turi bo'yicha murabbiy Dilfuza opa Samikjonova tashkil qilgan «Salomatlik» guruhi qizlari gimnastika bo'yicha Toshkent shahar hisobot musobaqasida muvaffaqiyatli qatnashishdi. MTMDa tashkil etilgan ingliz tili to'garagiga Dildora Soatova boshchilik qiladi. To'garakka 140 nafar kichkintoylar jalb qilingan.

Bu yerdagi jajjilar otalariga har kungi tafsilotlarni gapiraverib tugata olmaydilar. Bolalarning yana bir kuni maroqli o'tganidan tarbiyachilarning ham ko'ngillari to'q.

Ozoda TURSUNBOYEVA



HAYVONOT BOG'IDA

Bugun Gulnora dadasi bilan hayvonot bog'iga boradi. U yerda turli jonivorlarni, qushlarni ko'rishni sabrsizlik bilan kutayotgan qizaloq ertalabdan buyon oyisiga faqat shu haqida gapiradi:

— Oyijon, dadam qachon keladilar, soat necha bo'ldi?

— Hozir kelib qoladilar, qizalog'im, birpas kutib turgin, — deya hayajonlanayotgan qizchasini tinchlantiradi onasi.

Mana, nihoyat dadasi keldi. Gulnora quvongancha chiroyli ko'ylagini kiyib, yo'lga otladi. Ota-bola boqqa kirib borishar ekan, qizaloqning ko'zi dastlab markazdagi zangori favvoraga tushdi. U zavqlangan-cha qushlarni, baliqlarni, burgut-u ilonlarni tomosha qilargan:

— Dada, dada, qarang mana bu ilonni kattaligini, voy-bo'! — dedi hayajon bilan.

Yo'lbars bolasini ko'rganida esa unga yemish bergisi kelib qafasga yaqinlashdi. Jajji jonivorga qo'lidagi yemishni otar ekan, yo'lbarscha sapchib o'rnidan turdi. Shunda cho'chib ketgan Gulnora qo'lini tortib olishga shoshganida, qafasning temiri barmoqchasini kesib yubordi. Shundan buyon u hayvonot bog'iga borganida, qoidalarga rioya qilib, noxush hodisalarning oldini oladigan bo'ldi.

Iqbolxon MUHAMMEDOVA,
Toshkent shahar, Yakkasaroy
tumanidagi 73-umumta'lim
maktabi o'quvchisi

«QUYOSHJON» CHAQQON EKAN

Poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 193-umumta'lim maktabida tashkil etilgan «Kamalak» nomli yozgi oromgohda har mavsumda yuzdan ortiq bolajonlar maroqli dam olishmoqda.

Oromgohda bolajonlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish uchun tashkil etilgan gimnastika, futbol, badminton, stol tennis, shaxmat, shashka, shuningdek, «Mohir qo'llar», ingliz tili, rus tili, kompyuter saboqlari to'garaklarida dam oluvchilar faollikni susaytirmayaptilar. Oromgohdagi kutubxonada 720 nomdagi badiiy adabiyotlar mavjud bo'lib, bolajonlar kitob mutolaasiga ham katta e'tibor berishyapti. Shuningdek, guruh tarbiyachilari bolajonlar bilan birgalikda o'zbek va qardosh xalqlar ertaklarini sahnalashtirishmoqda.

Yana oromgohda guruhlararo futbol musobaqasi tashkil etilyapti. Ushbu bellashuvda «Kamalak» guruhi bolalari g'olib bo'lishdi. «Quvnoq startlar» musobaqasida «Qaldirg'och», «Quyoshjon», «Kamalak», «G'uncha», «Yulduzcha» guruhlarida dam oluvchilari qatnashib, o'z mahoratlari, chaqqonliklarini namoyon etishdi. Unda «Quyoshjon» guruhi bolalari g'alaba qozondi.

Ta'til davomida turli madaniy tadbirlar, mashhur insonlar bilan uchrashuvlar hamda shahrimizning diqqatga sazovor joylariga sayohatlar ham rejalashtirilgan.

Muzaffar AHMEDOV



GRAMMAR RULE

«To do» yordamchi fe'li

Present Simple	Past Simple
I do	I did
He, she does	He, she did
We do	We did

Ishlatish usullari.

1. «To do» yordamchi fe'li **Present Simple** va **Past Simple** zamonlaridagi bo'lishsiz va so'roq shakllarini yasashda ishlatiladi. **Do you speak Uzbek?**
2. Buyruq gaplarning bo'lishsiz shaklini yasash uchun yordamchi fe'li bo'lib ishlatiladi. **Don't open the window!**
3. «To be» va «to have» yordamchi fe'llarning bo'lishsiz va buyruq shakllarini yasashda. **Don't be angry.**
4. Buyruq gaplarda iltimosni kuchaytirish uchun ishlatiladi. **Do have another cup of tea?**



Painter: Yoqubbek HALIMBEKOV

WORD GROUPS

Put the words in the correct columns.

Transport	Adjective
Profession	Verb

Cinema,
put off, hotel,
interesting, train, hungry,
spark, gallery, teacher,
boring, cut, lazy.



Ma'mura G'ULOMOVA


ABBREVIATION

What is an abbreviation? It is a short form of a word or phrase.

Abbreviation	Full form
e.g	For example
p.m	After noon
TV	Television
A.S.A.P	As soon as possible
Voc	Vocabulary
P.E	Physical Education
B.C	Before Christ
i.e	That is
C.V	Curriculum Vitae

SMS ENGLISH

Dear children learn to write the English SMS.



(Call me please as soon as possible)
- K (Ok)

THERE ARE SOME USEFUL ENGLISH ABBREVIATION

Children try to write English sms to your friends and use these abbreviations.

Short form	Meaning
cu	See you
IDC	I don't care
BBS	Be back soon
IMO	In my opinion
LMK	Let me know
ATW	At the weekend
4E	Forever

ANTONYM MEANING

Find the opposite meaning

1. The night was cold and dark – The day was hot and clear
2. Komila laid head down on the hard pillow. –
3. The math test is very easy –
4. He takes the dull pencil from my pencil box –
5. Aziz bought a new car last weekend –
6. The cake tasted really sweet –
7. My best friend got the answer correct



Dinora ABDULLAJONOVA

Xondamir

odatda yozgi ta'tilni jonajon

qishlog'i - Koynida o'tkazishni yaxshi ko'radi. Ha, Kitob tumanidagi bu so'lim go'shaga hammaning havasi keladi.

ISTE'DODNING BIR QIRRASII

Hisor tog' tizmalari bag'rida joylashgan bu go'zal maskanda yozning jazirama issig'ida ham ko'm-ko'k bo'lib yashnab turadigan qir, dalalar, toza, zilol suvi sharqirab oqadigan anhor, erta tongdanoq qo'y-qo'zilarning, qir bag'ridan yuqoriga o'rlagan yoy shaklidagi yo'lakchalar orqali toqqa qarab yo'l olishining o'zi bir ajoyib manzara kasb etadi. Ayniqsa, bolalarning anhora mazza qilib cho'milishlarini aytmaйсizmi?

Xondamir erta turib qo'yalarini cho'ponga topshirgach, rasm chizadigan dastgohini yelkasiga osib, qishloq tepasidagi qir tomon yo'l oldi. Ha, bu yerdan Koyni va qo'shni Bodomzor qishlog'i kaftda turgandek ko'rinadi. U anchadan buyon qishloq manzarasini qog'ozda o'ziga xos tarzda tushirishni o'ylab yurgan edi. Rasm tayyor bo'lgach esa uni katta portret shakliga solib, ko'rgazmaga tavsiya qiladi. Ana,



baland, purviqor tog'lar ortidan boboquyosh sekin-asta yuqoriga ko'tarila boshladi. Xondamir ana xuddi shu manzarani chizishni ko'pdan buyon orzu qilardi. «Ajoyib kashfiyot bo'ldi-da», dedi o'ziga-o'zi mamnun holda. «Ancha vaqtdan buyon ana shu ajoyib manzarani kutib yurgandim. Ana endi astoydil ishlasa bo'ladi»... U qo'lga mo'qalamini oldi-da, ishga tushib ketdi...

Xondamir Po'latov Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi 2-umumta'lim maktabining 6-«A» sinf o'quvchisi. Bu intizomli, a'lochi va tashkilotchi o'quvchiga hammaning havasi keladi. Sinfdoshlariga ham fanlarni o'zlashtirishda yordam berishini aytmaйсizmi? Uning zimmasiga tashkiliy ish yuklatilgan. U sinf sardori.

Xondamir 5 yoshidanoq rasm chizishni boshlagan. U, ayniqsa, tabiat manzaralarini qalamga olishni yaxshi ko'radi, shu bois, aksariyat rasmlarida ona tabiatimizning betakror go'zalliklari o'z aksini topgan.

– Ingliz, rus tillarini yaxshi o'zlashtirishga harakat qilayapman, – deydi biz bilan suhbatda Xondamir, – kelajakda Toshkent xalqaro Vestminster universitetida o'qishni orzu qilaman. Matematika, fizika fanlariga ham havasim baland. Sinfimiz o'quvchilari juda ahil. Sinf rahbarimiz Linara Seytnabiyeva, ingliz tili o'qituvchimiz Dilbar Baxshiyeva, o'zbek tili o'qituvchimiz Yulduz Mirzayeva va boshqa fan o'qituvchilari ham bizga puxta bilim va namunali tarbiya berishadi. Sinfdoshlarim Firdavs, Jasmina, Ismoil, Madinalar bilan birga har kuni darslarga tayyorgarlik ko'ramiz, badiiy kitob o'qiyamiz. X.To'xtaboyev, O'.Hoshimov, X.Andersen, A.Pushkin asarlarini sevib mutolaa qilamiz. Sport bilan shug'ullanishga ham vaqt topaman – boks, dzyudo, futbol to'garaklariga qatnashaman.

Xondamir tuman, viloyat miqyosida o'tkazilgan turli tanlovlar va tasviriy san'at ko'rgazmalariga qatnashib keladi. Jumladan, Qashqadaryo viloyati maktab o'quvchilarining «Tasviriy san'at» yo'nalishi bo'yicha tanlovda faxriy yorliq bilan taqdirlangan, «O'zbekiston – Mustaqil Vatanimiz», «Milliy armiyamiz – faxr-u g'ururimiz» mavzusidagi insholar tanlovida 3-o'rinni, Kitob tumanida o'tkazilgan «Baxtli bolalik» anjumanida «Tasviriy san'at» yo'nalishi bo'yicha 1-o'rinlarni olishga sazovor bo'lgan.

Tengdoshingizning yutuqlari haqida yana ko'plab misollar keltirish mumkin. Siz ham Xondamirga tenglashing va undan-da o'zing.

Yusufjon HAMDAMOV



O'ZBEKISTONIM

Vatan – onajonim, munis, xokisor,
Senga aylagayman bu jonni nisor.
Bag'ringdan taralur jannatni ifor,
Buyuk sajdagohim, O'zbekistonim!

Islom bobom ruhi menga madadkor,
Temur bobom erur faxr-iftiyor.
Har jabhada ildam farzandlaring bor,
Buyuk sajdagohim, O'zbekistonim!

Alisher OROMOV,
Qashqadaryo viloyati,
Qarshi shahridagi Abdulla Oripov
nomidagi DIMI o'quvchisi



BUVIJONIM

Buvijonim, jonajonim,
G'amxo'rgina, mehribonim.
Ertagingiz mazmuni bor,
Ayting menga har kun takror.

Keksalikning gashtin suring,
Sira g'am ko'rmasdan yuring.
Baxtimizga omon bo'ling,
Chinordayin bo'lib turing.

Sochingizga oq tushmasin,
Ko'nglingizga dog' tushmasin.
Dunyoda eng mehribonsiz,
Quvonch Sizni tark etmasin.

Ro'za ISKANDAROVA,
Jizzax viloyati, Zarbdor tumanidagi
5-umumta'lim maktabi o'quvchisi

KITOBJONIM – OFTOBIM

Bebahoyim, boyligim,
Sen bor dadil xitobim.
Hayotimning ziyosi,
Kitobjonim – oftobim.

Har so'zingda bir hikmat,
Olamani ilm-u ta'lim.
Sen eng yaqin do'stimsan,
Kitobjonim – oftobim.

Risliqoy ISAQOVA,
Namangan shahridagi 21-umumta'lim
maktabi o'quvchisi

«TEMURBEKLAR MAKTABI» TURKUMIDAN

(Davomi. Boshi o'tgan
sonlarda)

SOG'INCH

Shu kundan boshlab Ergashning ruhiyatida o'zgarish yuz berdi. Unda ertangi kunga ishonch hissi paydo bo'ldi. Uyiga bir kuni hol so'rab kelgan otasining hamkasblaridan onasi choy damlagani chiqqanida, akademik litseyga kirish uchun qaysi fanlardan imtihon bo'lishini bilib oldi.

– Test sinovlariga tayyorlanishdan tashqari, sport bilan ham qattiq shug'ullan, – dedi ulardan biri.

Shu kundan e'tiboran uning hayotida asta-sekin o'zgarishlar ro'y bera boshladi. Ilgarilari maktabdan kelib, to qosh qorayguncha ko'chadan beri kelmaydigan Ergash endi maktabdan qaytgach onasidan:

«Nima ishga yordamlashay?» deb so'rardi. Qarashib bo'lgach esa kitoblari ustiga muk tushgancha dars qilardi. Ertalab vaqti turib yuguradigan odat chiqardi. Keyin otasining turnigiga osilib mashq bajarardi.

Buni ko'rib onasi bir tomondan quvonsa, ikkinchi tomondan «Tinchlikmi ish-qilib?» deb xavotir ham olib qo'yardi. Yana «Hammasi yaxshilikka bo'lsin. Aqlini yig'ib olayotgandir-da», deb o'ziga dalda berardi. Faqat bir narsa onani tashvishga solardi. Bu ham bo'lsa, Ergashning otasini eslamasligi edi. Mabodo, suhbat orasida otasidan gap ochilib qolsa ham, mavzuni boshqa yoqqa burishga harakat qilardi.

Yakshanba kuni edi. Onasi:
– Bugun xolangni ko'rib kelay, anchadan beri ko'risholmadik, istasang, sen ham yur, – dedi.

Ammo Ergash unamadi. «Darslarim ko'p edi», deb bahona qildi. Onasi singlisini ergashtirib ko'chaga chiqib ketdi. Do'konga kirib, sumkasini titkilasa, hamyonini uyida unutib qoldiribdi. Qiziga: «Sen shu yerda kutib tur, men hozir kelaman», deb iziga qaytdi.

Yotog'ida turgan hamyonini olib chiqayotib, Ergashning darsxonasiga ko'z qirini tashladi. Negadir

xavotir olib oshxona, hammomga qarab chiqdi. Endi mehmonxonaning eshigini ochmoqchi bo'lganida, ichkaridan o'g'lining pichirlab nimalardir deyaotgani eshitildi. Onasi eshik ortidan asta uning gaplariga quloq tutdi. «Otajon! – derdi Ergash o'pkasi to'lib. – Sizni judayam, judayam sog'inganman. Faqat buni onamga sezdirmayman. Gohida onam yo'qligida yotog'ingizga

kirib, javondagi kiyimlarinigizni to'yib-to'yib hidlayman. Ulardan sizning hidingiz keladi. Nasib etsa, sizning izingizdan borib, men ham ichki ishlar idorasi xodimi bo'lmoqchiman. Faqat buni onamga qanday qilib aytсам ekan?»

Shu paytgacha ko'z yoshlarini ichiga yutib, zo'rg'a chidab turgan ona o'g'lining oxirgi gaplarini eshitib:

– Yo'q, bolam, yo'q! – deb eshikni taraqlatib ochib, ichkariga otilib kirdi.

Ergash avvaliga gangu qoldi. Keyin o'zini onasining bag'riga otdi. Ona-bola xonaning o'rtasida ancha payt so'zsiz quchoqlashib turishdi.

Har ikkisi ham yig'idan titrardi. Onasi ko'z yoshi aralash xonaning to'ridagi umr yo'ldoshining suratiga tikildi. Nazarida u: «O'g'limizni niyatidan qaytarma», deyaotganday tuyuldi. Ona o'g'lining boshini silab:

– Katta bo'laver-chi, o'g'lim, bobong, amaking bilan maslahatlashib ko'rarmiz, – dedi.

Bu gapni eshitib, Ergashning yelkasidan tog' ag'darilganday yengil nafas oldi. Onasini yanayam qattiqroq quchib:

– Rahmat, onajon! – derdi. Shu holatda qancha turishganini bilishmaydi. Bir payt Ergashning singlisi eshikdan mo'ralab:

– Xolamlarnikiga bormaymizmi, ona? – dedi.

– Voy, esim qursin! – dedi onasi, keyin Ergashning yuz-u ko'zidan o'pib, mehmonxonadan chiqdi.

(Davomi bor)

«NABIRAMGA MAKTUBLAR» TURKUMIDAN

(Davomi. Boshi o'tgan
sonlarda)

Tikanli daraxt va olmaxon voqeasi bolaligimni yodimga solib yubordi. U paytlarda qishlog'imizga gaz kelmagani, qishli, qirovli kunlarda samovar o'tinga qiyalib qolardik. Ko'pincha choyni poxol, g'o'zapoya yoqib, qumg'onda qaynatardik. Choyga tutun isi urib qolardi. Ayniqsa, mehmon kelganda noqulay bo'lardi.

Bir kuni buvimlarning toblari qochib, ko'ngillari samovarchoy tusab qoldi. Aksiga olib, uyda tirnoqdek ham tashash yo'q. Hamma yoqni qalin qor bosgan.

Qo'shnimiz sezib qolib, kattagina bir to'nkani chiqarib berdi. Buni eshitib, buvimlar yotgan joylarida rosa duo qildilar. Men shoshib

chopqi bilan to'nkani kertishga tushdim. To'nkaga chumoli in qurgan ekan. Ikki-uchtasi oppoq qor ustiga uchib tushdi. O'lik-tirikligini bilib bo'lmas, uyquda edi, shekilli. Qo'lim ishga bormay qoldi. Kirib buvimga aytdim.

– Hay-hay, – dedilar buvim yotgan joylarida bir ahvolga tushib, samovarchoy ichmay men o'lay, to'nkani tek qo'y,

CHUMOLINING INI

bahorgacha qimirlatmanglar, chumolining ini buzulmasin-a...

Bu gapdan sevinib ketdim. Bahor keldi. Chumolilar to'nkani ichidan chiqib, asta-sekin har tarafga o'rmlab ketishdi. Ammo bu paytda buvimlar olamdan o'tgan edilar. Men ko'zimda yosh bilan, chumolilarga shunday-shunday

Erkin MALIK,
O'zbekiston Respublikasida
xizmat ko'rsatgan jurnalist



bo'lgan edi, deb buvim haqlarida gapirib bergan edim.

Ana shunaqa, bolajonim. Dunyoda hech bir narsaning uyi buzilmasin. Sizlar hamjihat bo'lib, olmaxonlarning inini saqlab qoldinglarmi, barakalla! Tabiatni asrashda hamisha shunday hushyor bo'ling. Chunki bu go'zal olam sizlarniki.

(Davomi bor)



MUHAMMADYUNUS – O'ZBEKISTON CHEMPIONI

O'smirlar o'rtasida boks bo'yicha Samarqand shahrida o'tkazilgan O'zbekiston chempionatida Marg'ilon shahridagi 2-Bolalar va o'smirlar sport maktabi a'zosi Muhammadyunus Mo'minjonov barcha raqiblarini yengib, O'zbekiston chempioni unvonini qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldi.

Muhammadyunus barcha uchrashuvlarni, ayniqsa, yarim final va final bahslarida yuksak texnik-taktik mahorat, ishonchli jismoniy tayyorgarlik evaziga to'la ustunlikka erishib, nafaqat boks ishqibozlari, balki mamlakat yetakchi mutaxassislarining ham e'tiborini qozondi. Uning bunday yutuqqa erishishida aka-uka murabbiylar Ismoiljon va Isroiljon Rustamovlarning hissasi katta. Chempionat yakuniga ko'ra, u O'zbekiston o'smirlar jamoasiga nomzodlar ro'yxatiga kiritildi. Marg'ilonlik Muhammadyunus endi bo'lg'usi Osiyo chempionatida yurtimiz sharafiga himoya qiladi. Hozir chempion qit'a birinchiligi bahslariga tayyorgarlikni boshlab yuborgan.

Biz unga yuksak parvoz tilaymiz.

Muhammadjon MAHMUDOV

SPORTSEVARLAR SAFI KENGAYDI

Joriy yilning 24-iyul kuni Toshkent viloyati hududidagi bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari dam oluvchilari o'rtasida «Olimpiya harakati» shiori ostida shaxmat, shashka, mini-futbol, stol tennisi, voleybol, suzish sport turlari bo'yicha spartakiada musobaqasi tashkil qilindi.

Umumiy natijalarga ko'ra, «Sokol» bolalar sog'lomlashtirish oromgohi 1-o'rinni egalladi. «Asaka» oromgohi bolalari 2-, «G'uncha» dam oluvchilari 3-o'rinni qo'lga kiritishdi.

Musobaqa sabab ko'plab bolajonlar sport bilan yaqindan do'stlashdi va o'zlari qiziqqan sport to'garaklariga borishni rejalashtirishdi. Aslida ustoz-murabbiylarning maqsadi ham shu edi-da.

Shukrulla G'ULOMOV



Toshkent shahar terma jamoalari 131 ta turli sport turlari bo'yicha Respublika musobaqalarida ishtirok etishdi.

2018-yilning 6 oyi davomida Toshkent shahar Jismoniy tarbiya va sport boshqarmasi tomonidan jami 312 ta sport tadbirlari tashkillashtirildi. Unda jami 20 868 nafar yoshlar (shundan 5 708 nafari qizlar) ishtirok etdi.



MAMLAKATIMIZ VAKILLARI BIRINCHI

O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi hamda O'zbekiston an'anaviy Karate-Do Federatsiyasi hamkorligida Yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, sportning yakkakurashlari turlariga yoshlarni keng jalb etish orqali ularni jismonan barkamol qilib tarbiyalash maqsadida 2018-yil 21-iyul kunlari Toshkent shahridagi «JAR» sport sog'lomlashtirish majmuasida ilk marotaba «Buyuk Ipak yo'li -2018» xalqaro turniri o'tkazildi.



«An'anaviy karate-do» sport turi bo'yicha o'tkazilgan mazkur musobaqada Turkmaniston, Tojikiston, Qoraqalpog'iston va barcha viloyatlar jamoalaridan 7 yoshdan 18 yoshgacha va undan yuqori yoshdagi 100 nafarga yaqin sportchilar ishtirok etdi. Xalqaro turnirning ochilish marosimida O'zbekistondagi diplomatik korpus vakillari ham ishtirok etdilar.

Keskin kurashlarga boy kechgan musobaqa yakunida O'zbekiston sportchilari g'oliblikni qo'lga kiritdi. Turkmaniston va Tojikiston davlatlari jamoalari 2-va 3-o'rinlarni zabt etdi.


Xalqaro turnir tashkilotchilari tomonidan g'olib va sovrindorlarga medal, diplom va esdalik sovg'alari topshirildi.

Muhammadsodiq ALIMOV



Tohir MULLABOYEV,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi

TOPISHMOQLI ALIFBO



A a

Agar qilsang e'tibor,
«A'lo», «a'lochi»da bor.
Alifboning bosh harfi,
Nima ekan bu, Sayfi?




S s

To'xta! Kutgin! Tez o'tgin!
Qoidasi so'zlari.
Qizil, sariq va yashil –
Chaqnab turar ko'zlari.

M m

Ko'zi qop-qora,
Badani yashil.
Suyuq va quyuq,
Taom bo'lar, bil.



X x

Erta tongda qichqirib,
Uyg'otar quloch kerib.
Boshida qizil taroq,
Nima ekan bu, o'rtoq?



Y y

Mallarang, dumaloq bosh,
Mushuklarga qarindosh.
Po'stini qora yo'l-yo'l,
Yashash joyi o'rmon, cho'l.
Hayvonlarga u sulton,
Nima ekan bu, Oston?



N n

Yog'ochdan silliq tani,
Ilma-teshik badani.
Bag'ridan o'tsa havo,
Taralar mayin navo.

P p

Gullari oltin yulduz,
Mevasi shar, qizil yuz.
Sharbati shifo dori,
Nima bu?



SH sh

Duxobaga o'ralib,
Pishadi hil-hillanib.
Ilma-teshik urug'i,
Shirin qoqi – qurug'i.



Pazanda qizgal

**TVOROG'LI
ROGALIKLAR**



Kerakli masalliqlar: 250 gramm sariyog', 4 stakan un, 200 gramm smetana, 100 gramm tvorog, 0,5 choyqoshiq iste'mol sodasi, 1 oshqoshiq limon suvi.

Ish avvalida sariyog'ni un bilan uvalab, ustiga smetana, tvorog, iste'mol sodasi, limon suvi qo'shiladi va yumshoq xamir qoriladi, so'ngra muzlatgichga 30 daqiqa qo'yiladi.

Xamir ikki zuvalaga bo'linadi va 0,5 sm qalinlikda yoyiladi. Dumaloq xamir shaklli pichoq yordamida uch-burchak shaklida kesilib,



orasiga maydalangan yong'oq qo'shiladi, keyin rogalik shaklida o'ralladi. Qizdirilgan gaz pechida 20 daqiqa davomida pishgan rogaliklar ustiga qand kukuni sepiyadi.

FOYDALI MASLAHATLAR

XONANI QANDAY SOVUTISH MUMKIN?

Issiq kunlarda qanday qilib konditsionersiz uyni salqinlatish mumkin? Hozir sizlarga shu haqda maslahat beramiz.

Agar ventilyatoringiz bo'lsa, uning to'g'risiga muz bo'laklari solingan likopcha qo'yib qo'ying. Ana shunda xona havorati pasayib, ancha salqinlashadi.

TABIYI GULLAR

Uy ichida gullar hid taratishining eng oddiy va tabiiy yo'li – gul o'stirish! Tuvakda o'stirilgan lavanda, uchqat, yalpiz yoki plyumeriya yoqimli hid taratishi bilan birga xona havosini ham tozalaydi.


EFIR YOG'LARI

Uy havosini yaxshilash uchun efir yog'lari-dan foydalanish usullari son-sanoqsizdir. Maxsus diffuzorni ishlatishdan tashqari, siz bu xushbo'y yog'larning bir necha tomchisini havo filtrlariga, xona burchaklariga xushbo'y moylar shimdirilgan paxtani dumaloqlab qo'yishingiz, efir yog'larini suvga aralashtirib purkagich yordamida mebellar va yostiqlarga sepishingiz mumkin.

NARGIZA tayyorladi

BO'SH O'TIRMAI. BOSH QOTIR!

SIRLI RAQAMLAR



Raqamlar behudaga yozib qo'yilmagan, ularning har biri yoki juftligi ma'lum bir ma'noni anglatadi. Ro'yxatdagi yozuvchilarning asarlari nomlarini raqamlar yordamida toping-chi?

(Boshqa variantlari ham mavjud) Husniddin Sharipov, O'tkir Hoshimov, Pirimqul Qodirov, Mirzo Ulug'bek, Shuhrat, Xudoyberdi To'xtaboyev, Said Ahmad.

Anvar MIRZAZODA tuzgan

8

30-iyul 2018



Muassis:

O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir
Feruz ADOLOVA

Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Qahramon QURONBOYEV,
Alisher SA'DULLAYEV,
Laziz TANGRIYEV,
Murtazo SULTONOV,
Feruz JALILOVA,
Ashurali JO'RAYEV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Nodira NAZAROVA
Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li
Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU
bosmaxonasida chop etildi.
Manzillimiz va bosmaxona
manzili:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz
Adadi – 28712
Buyurtma – V 2084

Tahririyatga kelgan
barcha qo'lyozmalar tahrir
qilinadi, mualliflarga
qaytarilmaydi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
Bahosi kelishilgan narxda.
Gazeta haftaning dushan-
ba kuni chop etiladi.
Topshirish vaqti – 18:00
Topshirildi – 18:00
Tel./faks:
(99871) 244-63-08